



## SIRDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



*Dastlabki ma'lumot  
2023- yil yanvar*






## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

**Statistik ma'lumotlar** jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **3 339** tani tashkil etib, 2022- yil 1- fevralga nisbatan **58** taga oshgan (o'sish sur'ati **101,8 %**). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **4** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **3 335** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTLar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

### Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



O'sish sur'ati

Tarkibiy qism



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar oyida Sirdaryo viloyatining chakana savdo tovar aylanmasi **273,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **87,6 %** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **36,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **155,2 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **236,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **82,1 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **26,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **88,8 %**) tashkil etdi.

# CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI




**Chakana savdo aylanmasi** – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. So'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>273,4</b>	<b>87,6</b>	<b>36,5</b>	<b>155,2</b>	<b>236,9</b>	<b>82,1</b>
<b>Guliston sh.</b>	103,4	90,3	14,7	145,9	88,7	85,0
<b>Shirin sh.</b>	3,0	70,4	0,01	80,4	2,9	70,4
<b>Yangiyer sh.</b>	24,9	82,5	1,6	89,7	23,2	82,0
<i>tumanlar:</i>						
<b>Boyovut</b>	19,7	94,7	8,6	123,1	11,1	80,3
<b>Guliston</b>	12,9	75,0	1,5	2,0 m.	11,3	69,1
<b>Mirzaobod</b>	22,2	103,3	2,7	3,9 m.	19,5	93,6
<b>Oqoltin</b>	7,5	102,5	0,3	104,5	7,3	102,5
<b>Sardoba</b>	12,8	108,3	0,2	87,2	12,6	108,6
<b>Sayxunobod</b>	10,3	77,7	3,7	7,9 m.	6,6	51,6
<b>Sirdaryo</b>	49,2	80,1	2,3	104,7	46,9	79,2
<b>Xovos</b>	7,7	75,6	1,0	7,4 m.	6,7	66,9

2023- yilning yanvar oyida 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Sardoba (**108,3 %**), Mirzaobod (**103,3 %**) va Oqoltin (**102,5 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


# YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI

Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi  
(yanvar, mlrd.so'm)




So'nggi **6 yillikda** chakan savda Tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2023-yilning mos davriga nisbatan **109,6 %** ni yoki **23,3 mlrd. so'mni** tashkil qildi.

## Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida (foizda) (2022- yil, 2023- yil yanvar oyi)



2023- yilning yanvar oyida o'sish sur'ati 87,6 % ni tashkil qildi.

## Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Guliston shahri **37,8 %** bilan **103,4** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Shirin shahri **1,1 %** bilan **3,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.


## CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **236,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar oyiga nisbatan **82,1** % ga tashkil qildi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **86,6** % ni tashkil etdi.

### Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)




### Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **55,2** % ga o'sdi va **36,5** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **13,4** % ulushiga to'g'ri keldi.

## CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Shirin sh. (**99,6 %**), Sardoba (**98,8 %**) va Oqoltin (**96,5 %**) hududlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **13,4 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Boyovut (**43,7 %**), Sayxunobod (**35,9 %**), Guliston sh. (**14,2 %**) hududlarida kuzatildi.

## AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

### Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>308,0</b>	<b>85,8</b>
Guliston sh.	1 069,2	86,3
Shirin sh.	153,7	69,7
Yangiyer sh.	541,0	80,1
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	146,1	93,4
Guliston	168,0	73,6
Mirzaobod	286,2	101,3
Oqoltin	138,5	100,8
Sardoba	185,9	106,5
Sayxunobod	127,7	76,5
Sirdaryo	368,2	78,7
Xovos	76,9	74,3


2023- yilning yanvar holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **308,0** ming. so'mni (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **85,8** %) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (**1 069,2** ming. so'm), Yangiyer shahri (**541,0** ming. so'm) va Sirdaryo (**368,2** ming. so'm) tuman hissasiga to'g'ri keldi.




Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **26 477,9** mln. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **88,8 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **10 380,4** mln. so'mni (**79,2 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **16 097,5** mln so'mni tashkil etdi (**96,2 %**).

## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi (mln. so'm)



## Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



### Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



**Dehqon (oziq-ovqat) bozori** – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilionlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.












## UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON\* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	<b>Jami, mlrd. so'm</b>	<b>2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda</b>	<b>Dehqon bozorlari, mlrd. so'm</b>	<b>2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda</b>	<b>Chorva bozorlari, mlrd. so'm</b>	<b>2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda</b>
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>26,5</b>	<b>88,8</b>	<b>10,4</b>	<b>79,2</b>	<b>16,1</b>	<b>97,9</b>
Guliston sh.	5,5	129,0	5,5	129,0	0,0	0,0
Shirin sh.	-	-	-	-	-	-
Yangiyer sh.	1,1	143,1	1,1	143,1	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Boyovut	1,3	91,0	1,3	91,0	-	-
Guliston	1,8	41,2	0,3	79,2	1,5	39,0
Mirzaobod	5,5	191,1	-	-	5,5	194,4
Oqoltin	-	-	-	-	-	-
Sardoba	7,2	148,0	0,1	6,4	7,1	245,0
Sayxunobod	0,8	15,2	-	-	0,8	19,9
Sirdaryo	2,1	65,6	2,1	65,4	0,0	0,0
Xovos	1,2	42,4	-	-	1,2	42,4

\* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;






– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar oyida Viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **10 380,4** mln. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**5 489,8** mln. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		mln. so'm
	<b>Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b>	<b>5 489,8</b>
	<b>Non va non mahsulotlari</b>	<b>1 334,2</b>
	<b>Don mahsulotlari</b> (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	<b>650,7</b>
	<b>Tovuq go'shti</b>	<b>366,8</b>
	<b>Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari</b> (yong'och, bodom, pista va boshqalar)	<b>811,6</b>
	<b>Sut va sut mahsulotlari</b> (sir, brinza,...)	<b>632,9</b>
	<b>Tuxum</b>	<b>349,5</b>
	<b>Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak</b>	<b>0,0</b>
	<b>Ziravorlar</b>	<b>482,3</b>
	<b>Tuzlamalar</b>	<b>262,6</b>
	<b>Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari</b> (manzarali va qishloq xo'jaligi)	<b>0,0</b>
	<b>Nooziq-ovqat tovarlari</b>	<b>0,0</b>

## UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023- yilning yanvar oyida Viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvini o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **16 097,5** mln. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **13 241,1** mln. so‘m, qo‘y va echkilar – **2 601,8** mln. so‘mni, otlar – **247,5** mln. so‘mni, parrandalar – **7,1** mln. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		mln. so‘m
	2 yoshdan katta bo‘lgan qoramollar	5 444,8
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	5 877,2
	1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	1 919,1
	Qo‘ylar	2 069,7
	Otlar	247,5
	Echkilar	531,9
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	4,2
	Tovuqlar	2,6
	Quyionlar	0,0
	Qushlar	0,5

## UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- fevral holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarini soni **872** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – fevral holatiga nisbatan **15** taga oshgan va o'sish sur'ati **101,8 %** tashkil etgan.


2023- yilning yanvar oyida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,3 %** ni tashkil etib, **6 536,5** mln. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **80,4 %** ga kamaydi. Bunda savdo aylanmasining **77,6 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yakka tartibdagi tadbirkorlik subektlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>6 536,5</b>	<b>80,4</b>	<b>5 623,2</b>	<b>77,6</b>	<b>913,3</b>	<b>103,0</b>
Guliston sh.	3 160,1	82,5	2 901,0	81,0	259,1	105,0
Shirin sh.	124,1	76,6	107,7	73,8	16,4	103,0
Yangiyer sh.	952,1	82,3	809,5	79,4	142,5	104,0
<i>tumanlar:</i>						
Boyovut	203,5	66,2	145,1	58,0	58,5	102,0
Guliston	465,0	76,9	404,7	73,7	60,3	108,0
Mirzaobod	376,1	77,9	347,7	76,5	28,4	100,0
Oqoltin	169,0	81,5	127,8	77,1	41,2	99,0
Sardoba	130,2	82,3	89,1	76,2	41,1	100,0
Sayxunobod	213,8	81,0	170,9	77,4	42,8	100,0
Sirdaryo	622,5	79,5	418,4	71,9	204,1	102,0
Xovos	120,0	67,8	101,1	63,7	18,9	102,0

## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- fevral holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **17 900,8** mln. so'mni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan **76,2 %** ga kamaydi. Shuningdek, kichik biznes korxonalar savdo hajmi **17 123,2** mln. so'm (o'sish sur'ati- **75,2 %**), xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **777,6** mln. so'mni (o'sish sur'ati – **106,7 %**) tashkil qildi.

### Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



## Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

### Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mln. so'm	Ulushi, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>17 900,8</b>	<b>100,0</b>
Guliston sh.	7574,1	42,3
Shirin sh.	58,6	0,3
Yangiyer sh.	176,7	1,0
<i>tumanlar:</i>		
Boyovut	78,7	0,4
Guliston	6,8	0,0
Mirzaobod	1 533,6	8,6
Oqoltin	5 123,5	28,6
Sardoba	243,2	1,4
Sayxunobod	133,2	0,7
Sirdaryo	2947,3	16,5
Xovos	25,2	0,2

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Guliston shahri (**7 574,1** mln. so'm), Oqoltin (**5 123,5** mln. so'm) va Sirdaryo (**2 947,3** mln. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.




**Ulgurji savdo tovar aylanmasi** – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

## Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mln. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **90 516,1** mln. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **25,2 %** ga kamaydi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **79 626,5** mln. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **69,9 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **88,0 %** ni tashkil qildi.


# ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUB'EKTLARI



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Yangiyer shahri (9,4 b.), Sirdaryo (2,0 b.) va Oqoltin (1,8 b.) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni 1 450 tani tashkil etib, 2022- yil 1- fevral holatiga nisbatan 157 taga ko'paygan, o'sish sur'ati 112,1 % tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 4 tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 1 446 tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>90 516,1</b>	<b>74,8</b>	<b>10 889,6</b>	<b>154,9</b>	<b>79 626,5</b>	<b>69,9</b>
Guliston sh.	28 118,7	69,0	1 252,7	87,3	26 866,0	68,3
Shirin sh.	393,2	71,1	-	-	393,2	71,1
Yangiyer sh.	6 142,7	76,7	473,1	9,4 m.	5 669,6	71,3
Boyovut	8 123,8	92,0	3 490,7	153,3	4 633,1	70,7
Guliston	2 298,7	90,7	877,5	164,5	1 421,2	71,0
Mirzaobod	2 987,8	71,6	742,5	163,1	2 245,3	60,4
Oqoltin	342,5	-115,9	810,0	178,0	-462,5	62,3
Sardoba	3 632,1	80,5	813,1	155,3	2 819,0	70,7
Sayxunobod	8 540,3	77,6	945,0	181,7	7 595,4	72,5
Sirdaryo	25 679,2	72,5	810,0	2,0 m.	24 869,3	71,0
Xovos	4 257,1	77,7	675,0	173,0	3 582,1	70,4



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistika bo'limi  
Тел. (67) 236-86-34**